

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI JISMONIY
RIVOJLANTIRISHDA MILLIY HARAKATLI O'YINLARDAN SAMARALI
FOYDALANISH**

Dadaboyev Muzaffar Ergashevich

*Andijon tumani 15-umumiy o'rta ta'lif
mektebi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlantirishda milliy harakatli o'yinlardan samarali foydalanish.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, jismoniy tarbiya, o'yin, milliy harakatli o'yinlar, milliy sport, sog'lomlashtirish, tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilik.

KIRISH

Harakatli va milliy xalq o'yinlarining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o'rganish sohasida ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. G'.M. Salimov, U.Islomov, F.M. Nasriddinov, A.Sh. Qosimov va boshqa olimlar o'z tadqiqotlari doirasida ta'lif sohasida xalq harakatli o'yinlarini qo'llash hamda buning ustuvorligi xususida mulohaza yuritganlar. Milliy harakatli o'yinlardan foydalanish jarayonida boshlang'ich maktab o'quvchilarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak:

1. Bolalarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga, munosabatiga qiziqadi.
2. Bolalar xalq o'yinlarida atrofdagi voqe'likning eng tashqi ifodali jo'shqin histuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar.
3. Milliy o'yinlarda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyatga tadbiq qiladi.
4. Kattalarning hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

MUHOKAMA

Milliy xalq o'yinlaridan foydalanishda, ularni qo'llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi bolalar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng, kuchli harakatlarga ancha moyil bo'ladilar. Buni bolalar yosh davrlarini ishlab chiqqan buyuk pedagog YA.N.Komenskiy ham o'z vaqtida ta'kidlagan edi. Umuman bu yoshda bolalar juda ham harakatchanligi bilan ajralib turadi. Harakatchanlik esa maxsus, oqilona tashkil etilishni, harakatga soluvchi yurish-turish shakllarining to'g'rilingini talab etadi. Bolalarning bu yoshida tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarini muvozanatligini yuzaga keltirishda kattalar talabining tizimliligi va o'zini tuta bilishga odatlantirish katta rol o'ynaydi. Bolalarda maktabda o'qiy boshlagan

birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkonini yaratiladi. Bunda jismoniy madaniyatning barcha zamonaviy vositalari bilan birga o'zbek xalq milliy o'yinlari juda qo'l keladi, chunki bu o'yinlar bolalarni jismoniy, ruhiy, ma'naviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini o'z ichiga ola biladi. Milliy xalq o'yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o'zgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmun va qoidalarida o'zining muayyan izini qoldirgani haqida yuqorida to'xtalgan edik.ba'zi o'yinlarning nomi va qoidalari hozircha saqlanib qolgan. Ana Shunday o'yinlardan foydalanishda ularningbolalarga jismoniy ta'sirdan tashqari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ham nazardan soqit qilmaslik, ijodiy qo'llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak. Masalan, «Uloq» o'yini deganda odatda ot bilan o'ynaladigan, chavandozlar haqiqiy uloq uchun kurashadigan qadimiyo ko'pkari o'yini tuShuniladi. Bolalarga mo'ljallangan «Uloq» o'yini otsiz o'tkaziladi, o'yinchilar bir parcha echki terisi yopishtrilgan to'ldirma to'pni olish uchun kurashadilar. O'yin qoidalarining ba'zi jihatlari kattalarnikiga o'xshab ketadi. Tezkorlik, chaqqonlik va kuchlilikni tarbiyalovchi bu o'yin katt tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, bunda bir-birini hurmt qilish, samimiyy munosabat, qo'pollik qilmaslikka katta e'tibor briladi. Xalq milliy harakatli o'yinlari bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki o'yinlar o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, ularga zavq bag'ishlaydi, ish qobiliyatlarining tezroq tiklanishini ta'minlaydi. O'yinlar tufayli bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishga harakat qiladilar. Xalq milliy o'yinlarining barchasi bolalarning organizmlariga yaxlit ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiyy jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi sifatida qarash lozim. Bironta o'yin yo'qli, u ayrim jismoniy sifatni rivojlantiruvchi vosita bo'lib hisoblanmasin. Masalan, «Do'ppi kiyishda kim g'olib?» milliy o'yinida faqat chaqqon bo'libgina qolmay, balki epchil, sezgir bo'lishga ham da'vat etiladi. Jismoniy madaniyat tizimidagi barcha soha va bosqichlarning birdan-bir va yagona maqsadi-insonni to'g'ri yashashga tayyorlashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasining vazifalari bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, lekin bunda jismoniy madaniyatning umumiyy maqsadi ko'zdan qochirilmaydi. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasida sog' lomlashtirish, ta'lim berish va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Xalq milliy o'yinlari orqali bu vazifalarni yaxlit holda bajarish imkoniyatlari ko'proq ko'rindi. 7-8 yoshli ya'nini boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasining eng asosiy vazifasi bola hayotini muhofaza qilish va uning so g'lagini mustahkamlash, uning organizmini chiniqtirish yo'li bilan o'zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirish, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga bardosh berishga o'rgatishdan iborat.

XULOSA

Milliy o'yinlar bilan shug'ullanish jarayonida mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Bolalarning salomatligi yaxshilanadi, ularda harakat malakalari shakllanadi, mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi. Bolalarni mehnatga tayyorlashda jismoniy madaniyatning, jumladan, xalq milliy o'yinlarining tutgan o'rnini ularga tushuntirish va bu tushunchani ularning ongida shakllantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar jismoniy tarbiyasining vazifalari doimo, jumladan, milliy xalq o'yinlarini o'rganish va o'rgatish jarayonida ham uyg'un holda hal etiladi. Bu vazifalar butun jismoniy madaniyat tizimining bolalarga ta'sir etishi tufayligina muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin. Buning uchun mакtabning butun pedagogika jamoasi birgalikda ahil xarakat qilishi, mакtabda mashg'ulotlarni tashkil etishning turli shakl va usullaridan, ayniqsa, milliy xalq o'yinlarida, barcha vositalari yaxlitligi (kompleksi) dan foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salimov G.M. Milliy harakatli o'yinlar asosida 7-10 yoshli o'quvchilarning jismroniy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi.: Dis. ... kand. Ped. Nauk. – T., 2007.
2. Islamov A. O'zbek xalq o'yinlari va ularning darsda qo'llanishi. // Xalq ta'limi. № 4-5. – T., 1992.
3. Nasriddinov F.N., Qosimov A.Sh. O'zbek xalq milliy o'yinlari. 1 – to'plam. – T., 1998. March, 2022.